

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati”
aksiyadorlik jamiyatining
2022-yil “11”-martdagi
192-sonli buyrug‘iga 1-ilova

**“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatiga
ishga olishda shaffof tizimni yaratish, nomzodlarni jamlash, sinov tadbirlarini
o‘tkazish hamda ochiq tanlov asosida ishga qabul qilish namunaviy**

TARTIBI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur tartib “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatiga (keyingi o‘rinlarda – “NKMK” AJ) ishga olishda nomzodlarni jamlash, sinov tadbirlarini o‘tkazish hamda ochiq tanlov asosida ishga qabul qilish maqsadida tashkil etilayotgan “Kadrlarni ishga qabul qilish bo‘yicha tanlov komissiyasi”ning faoliyat yo‘nalishlari, ularning huquqlari va majburiyatlarini belgilaydi.

2. Mazkur tartib Mehnat kodeksining 72-moddasi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldaggi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5177-sonli qarori talablari ijrosini ta’minalash hamda ishga qabul qilishning **ochiq tanlov asosida tashkil etish, barcha nomzodlarga teng imkoniyatlar yaratish va kadrlarni tanlashning shaffof tizimini yaratish maqsadida ishlab chiqilgan.**

“NKMK” AJning ma’lum lavozimida ishlab kelayotgan xodim boshqa lavozimga o‘tkazilishi davomida ushbu tartib qoidalar tatlbiq etilmaydi. Xodimni boshqa lavozimga o‘tkazish xodimning arizasi va “Navoiy KMK” AJ tasarrufidagi korxona va tashkilotlarda kadrlarga oid siyosatni yuritilishi hamda malakali va salohiyatli kadrlar bilan ta’minalishini muntazam ravishda nazorat qilib borish bo‘yicha komissiyasi bayonnomasiga asosan amalga oshiriladi”.

3. Mazkur tartibda quyidagi tushunchalardan foydalilanildi:

vakant ish o‘rni – qonunchilikka muvofiq tegishli malakaga ega xodim qabul qilinishi mumkin bo‘lgan “NKMK” AJda bo‘s sh turgan ish o‘rni (kasb, lavozim);

nomzod – vakant ish o‘rniga ishga kirish uchun belgilangan tartibda elektron tarzda yoki bevosita murojaat qilgan jismoniy shaxs yoki mazkur lavozimga ishga kirish (o‘tish) hohishini bildirgan jismoniy shaxs;

tanlov – vakant ish o‘rni oldiga qo‘yilgan vazifalarni samarali bajarish bo‘yicha talablarga bilimi, malakasi, kasbiy ko‘nikmasi, shaxsiy-psixologik xususiyatlari mosligini aniqlashga qaratilgan, mehnat shartnomasini tuzishdan oldingi holatlar majmui;

shaxsga oid ma’lumotlarni baholash – nomzodning shaxsiy va ahloqiy, amaliy ishda namoyon qilgan kasbiy, ma’naviy va ishchanlik sifatlarini aniqlash maqsadida, ish faoliyatini o‘rganib chiqish hamda natijalarini baholash tadbirlari;

Kadrlarni ishga qabul qilish bo‘yicha tanlov komissiyasi (keyingi o‘rinlarda – **Tanlov komissiyasi**) – “NKMK” AJning vakant o‘rinlariga nomzodlarni tanlovdan o‘tkazish, uni ishga qabul qilish yoki rad etish bo‘yicha xulosa berish vakolatiga ega bo‘lgan “NKMK” AJning mas’ul xodimlari;

sinov o‘tkaziladigan kun – tanlov komissiyasi tomonidan nomzodlar bilan savol-javobni amalga oshirish hamda shaxsga oid ma’lumotlarni o‘rganib, nomzodning faoliyatiga baho beriladigan sana;

sinov – sinov o‘tkaziladigan kunda tanlov komissiyasi tomonidan nomzodlar bilan o‘tkaziladigan savol-javoblar va shaxsga oid ma’lumotlar uchun baholash jarayoni;

tanlov jarayoni ishtirokchilari – tanlov komissiyasi va nomzodlar.

4. Tanlov komissiyasi tarkibi quyidagilardan iborat:

- tarkibiy bo‘linmaning bosh mutaxassislari (yo‘nalishlar bo‘yicha);

- katta tajribaga ega bo‘lgan jamoada o‘z hurmatiga, yuqori malakaga ega xodimlar;

- vakansiya mavjud bo‘lgan bo‘linmalarning yetakchi mutaxassislari (yo‘nalishlar bo‘yicha);

Komissiya tarkibi 7 kishidan kam bo‘lmagan, ovozga qo‘yganda teng huquqqa ega bo‘lgan, soni toq bo‘lgan xodimlardan iborat bo‘lishi lozim.

Tanlov komissiyasi tarkibiga kiritilgan xodim vaqtinchalik ishda bo‘lmagan holatlarda, uning vazifasini bajaruvchi shaxs tanlovga qatnashadi.

5. Tanlov komissiyasining huquq va majburiyatlari quyidagilardan iborat:

- Tanlov komissiyasi a’zolari (yoki vazifasini bajaruvchi shaxs) tanlov jarayoniga qatnashishi shart;

- Tanlov komissiyasi o‘z faoliyatini qonuniylik, xolislik, ochiqlik va shaffoflik prinsiplari asosida mustaqil ravishda amalga oshirishi lozim;

- Nomzod tomonidan sinov kuniga qadar yoki sinov jarayoni boshlanishidan oldin o‘zining shaxsiy ma’lumotnomasi (ob’yektivka)ni, jamiyatning vakant ish o‘rinlariga talab etilgan, malaka, belgilangan kasbiy mahorat va maxsus bilim, hamda tajribani (tegishli kasb va lavozimlarga mehnat stajini) tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etmasa, Tanlov komissiyasi nomzod bilan suhbat, savol-javob o‘tkazmaslik va shaxsga oid ma’lumotlarni o‘rganmaslik huquqiga ega;

- Tanlov komissiyasi a'zolari ishlab chiqilgan savol-javoblardan tashqari, vakant ish o'rinaliga (kasb, lavozim) faoliyatiga oid boshqa savollarni nomzodga berish huquqiga ega;

- Tanlov komissiyasi nomzodlar ro'yxatini shakllantirish, malakaga oid talablarga muvofiqligini o'rganish, nomzodlar bilan savol-javoblarni o'tkazib baholash, nomzodning shaxsga oid ma'lumotlarini o'rganib baholash, tanlov natijalari bo'yicha xulosasini bayonnomada aks ettirilishini ta'minlaydi.

"Nomzod tomonidan taqdim etilgan shaxsiy ma'lumotnomasi (ob'yektivka)dagi yozuvlar haqqoniy bo'limganligi holati aniqlansa, Tanlov komissiyasi nomzod bilan test, savol-javob o'tkazmaslik va shaxsga oid ma'lumotlarni o'rganmaslik huquqiga ega".

6. Tanlov quyidagi bosqichlarda o'tkaziladi:

birinchi bosqich – tanlov o'tkazilishi to'g'risida e'lon qilish;

ikkinchi bosqich – nomzodlarni jamlash va malakaga oid talablarga muvofiqligini o'rganish hamda nomzodni tekshirish;

uchinchi bosqich – nomzodlarni testdan o'tkazish (injener-texnik xodimlar uchun);

to'rtinchi bosqich – nomzodlar bilan savol-javob o'tkazish va shaxsga oid ma'lumotlarni baholash;

beshinchi bosqich – Tanlov yakuni va nomzodlarni saralash.

7. "NKMK" AJga ishga qabul qilish ochiq tanlov asosida amalga oshirish hamda tanlov doirasida o'tkaziladigan sinov tadbirlari Internet tarmog'i orqali real vaqt rejimida kuzatishni nazarda tutishi lozim.

Shu maqsadda, uchinchi va to'rtinchi bosqichlarni videoyozuv qurilmalari yordamida tasvirga olinib, bir yil davomida saqlanadi.

2-bob. Tanlov o'tkazilishi to'g'risida e'lon qilish

8. Tanlov o'tkazish to'g'risidagi e'lon:

vakant ish o'rinalar to'g'risidagi ma'lumotlar "Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy-apparat komplekslaridan foydalangan holda O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining rasmiy veb-saytiga;

"NKMK" AJning rasmiy veb-saytining e'lon sahifalariga hamda kombinat bo'linmalari binosining peshlavhasiga joylashtiriladi .

Tanlov o'tkazish to'g'risidagi e'lon "NKMK" AJning Kadrlar boshqarmasi (bo'linmalar kadrlar xizmati) tomonidan joylashtiriladi.

9. Tanlov o'tkazish to'g'risidagi e'londa quyidagilar ko'rsatiladi:

nomzodning malakasiga qo'yiladigan talablar;

lavozim (kasb) majburiyatlari;

ish sharoitlari.

10. Tanlovda ishtirok etish bo'yicha nomzodlarning hujjatlarini qabul qilish muddati tanlov e'lon qilingan kundan boshlab 10 ish kunni tashkil qiladi.

Tanlovda ishtirok etish bo'yicha nomzodlarning hujjatlari kelib tushmagan taqdirda, hujjatlarni qabul qilish muddati avtomatik tarzda 10 ish kunga uzaytiriladi.

11. Nomzodlar tomonidan tanlovda ishtirok etish bo'yicha hujjatlarni taqdim etishda saytdagi elektron so'rovnomani to'ldirish yoki Tanlov komissiyasiga murojaat qilish orqali amalga oshiriladi.

Nomzod bir nechta vakant ish o'rirlarni lavozimlarini tanlash huquqiga ega.

12. Nomzodlar tomonidan tanlovda ishtirok etish bo'yicha hujjatlar taqdim qilishda yolg'on ma'lumotlar yoki soxta hujjatlar taqdim etilganligini aniqlanishi ularni tanlovdan chetlatish uchun asos hisoblanadi.

13. Vakant kasb, lavozim bo'yicha tanlovn ni amalga oshirish uchun kamida ikkita nomzoddan hujjatlar kelib tushgan taqdirda o'tkaziladi.

3-bob. Nomzodlarni jamlash va malakaga oid talablarga muvofiqligini o'rghanish hamda nomzodni tekshirish

14. Bo'limlarning kadrlar xizmatlari Tanlov komissiyasining nomzodlarni tanlash bo'yicha qaroriga aralashmasdan, Tanlov komissiyasi ishida ishtirok etadilar va tashkiliy vazifalarni bajaradilar.

15. Hujjatlarni qabul qilish muddati tugagan kundan e'tiboran uch ish kuni mobaynida Tanlov komissiyasiga hujjat taqdim etgan barcha nomzodlarning ro'yxati 1-ilovaga muvofiq shakllantiriladi hamda tasdiqlanadi.

16. Tanlov komissiyasi tomonidan nomzodning hujjatlarini vakant kasb, lavozimni egallash bo'yicha malaka talablariga mosligi o'rghanib chiqiladi.

Tanlov komissiya tomonidan o'rghanish natijalariga ko'ra, nomzodning malaka talablariga muvofiqligi yoki muvofiq emasligi to'g'risida 2-ilovaga muvofiq ma'lumot tasdiqlanadi. Malaka talablariga muvofiq nomzodlar tanlov ishtirokchilari hisoblanadi.

Malaka talablariga muvofiq bo'lмаган nomzodlar tanlov ishtirokchilari ro'yxatiga kiritilmaydi va bu to'g'risida Tanlov komissiyasi tomonidan nomzodga xabar beriladi.

Nomzodni tekshirish jamiyat tomonidan tasdiqlangan tartib asosida amalga oshiriladi.

17. Nomzodlarga qo'yilgan talablar kasb, lavozim yo'riqnomalari bilan belgilanadi.

18. Tanlov komissiyasi tomonidan tanlovda qatnashadigan nomzodlar ro‘yxatini tasdiqlab, sinov o‘tkaziladigan kunni belgilaydi.

Nomzodlarning hujjatlarini qabul qilish muddati tugagandan keyin sinov Tanlov komissiya tomonidan 15 (kalendor) kun ichida o‘tkazilishi lozim.

19. Nomzodlarning soni hamda nomzodning tanlovga qatnashish imkoniyatini hisobga olgan holda Tanlov komissiya a’zolari tomonidan sinov belgilangan kundan keyingi kunga ham uzaytirilishi mumkin.

Nomzodlarning taklif hamda iltimoslarini hisobga olgan holda sinov o‘tkaziladigan kun dam olish (shanba) kunida ham amalga oshirilishi mumkin.

20. Tanlov komissiyasi tomonidan “NKMK” AJning rasmiy sayti orqali sinov o‘tkazish vaqt va joyi hamda sinov jarayonida talab etiladigan hujjatlar to‘g‘risida nomzodlarga xabar berilishini ta’minlaydi.

21. Sinov belgilangan kuniga qadar yoki sinov jarayonida nomzodlar tomonidan quyidagi hujjatlarning nusxalari taqdim etilishi lozim:

O‘rindoshlik asosida ishga kirayotgan shaxslar asosiy ish joyidan olgan ma’lumotnomani;

harbiy xizmatga majburlar yoki chaqiriluvchilar tegishinchcha harbiy biletni yoki harbiy hisobda turganlik haqidagi guvohnoma;

qonunchilikka muvofiq maxsus ma’lumotga yoki maxsus tayyorgarlikka ega shaxslargina bajarishi mumkin bo‘lgan ishlarga kirayotganda oliy yoki o‘rta maxsus, kasb-hunar o‘quv yurtini tamomlaganligi to‘g‘risidagi diplomni yoxud mazkur ishni bajarish huquqini beradigan guvohnomani yoki boshqa tegishli hujjat.

22. Sinov o‘tkaziladigan kun to‘g‘risida xabar berilgan, lekin sinovda ishtirok etmagan nomzodlar sinovga qatnashmagan deb hisoblanadi.

23. Belgilangan kunda tanlovga qatnashish imkoniyati bo‘lmagan nomzodlar tomonidan keyingi tanlovda qatnashish xuquqiga ega.

24. Tanlovda qatnashmagan nomzodlar bilan mehnat shartnomasi tuzilmaydi (ishga kirishiga yo‘l qo‘yilmaydi).

4-bob. Nomzodlarni testdan o‘tkazish

25. Nomzod bilan test o‘tkazish nomzodning kasbiy va huquqiy bilimlarini mavjudligi sohani bilishini aniqlash hamda nomzodlarni saralash maqsadida o‘tkaziladi.

26. Test o‘tkaziladigan kunda Tanlov komissiyasiga mutaxassislar tomonidan 50 tadan kam bo‘lmagan test savollari va har bir savolga 4 tadan kam bo‘lmagan javoblar ko‘rsatilgan testlarni taqdim etadi. Ushbu taqdim etilgan testlar asosida sinov o‘tkaziladi.

Testlarni kompyuterda tayyorlab, nomzodlardan sinovni o'tkazish mumkin. Kompyuterda o'tkaziladigan testda nomzod javobni tanlagandan keyin keyinga savolga o'tguncha javobning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi ko'rsatib o'tishi lozim. Kompyuterda o'tkaziladigan testni o'tkazish tartibi, belgilangan texnik topshiriq asosida amalga oshiriladi va sinov natijalari nomzodning test natijalariga asosan avtomatik shaklda hisobot holatiga keltiriladi.

Nomzodga berilgan savollar va uning tanlagen javoblari doimiy xotirada saqlab boriladi. Agar nizo mavjud bo'lganda nomzodga berilgan savol va u tanlagen javob to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

27. Test 10 ta savoldan iborat bo'lib, savollarning kamida 7 tasi vakant o'rinning vazifalari hamda ishiga (mutaxassislikka) oid bo'lmog'i lozim. Qolgan savol umumiyl tushunchalar, jamiyat to'g'risidagi ma'lumotlar, huquqiy bilimlar, murojaatlar, mehnat qonunchiligi, ijtimoiy tafakkur va boshqa yo'nalishlarda berilishi mumkin.

28. Har bir to'g'ri javobga 1 ball beriladi. Test natijasi bo'yicha 5 ball va undan yuqori ball to'plagan nomzodlar keyingi (to'rtinch) bosqichga o'tkaziladi.

29. Nomzodning test natijasi Tanlov komissiyasi a'zolari tomonidan baholanib jamlanadi.

Shaffoflikni ta'minlash maqsadida, nomzodni baholash natijalari test topshirilgandan keyin nomzodga tanishtiriladi.

5 balldan kam ball to'plagan nomzodlar keyingi bosqichga o'tkazilmaydi.

5-bob. Nomzod bilan sinov va savol-javob o'tkazish hamda ularni baholash

30. Nomzod bilan savol-javoblar nomzodning shaxsiy va kasbiy hamda huquqiy bilimlarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

31. Sinov o'tkaziladigan kunda Tanlov komissiyasiga mutaxassislar tomonidan 45 tadan kam bo'lmagan savol-javoblar taqdim etiladi. Ushbu savol-javoblar doirasida sinov amalga oshiriladi.

Mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan savol-javoblardan tashqari, Tanlov komissiyasi kasb, lavozim faoliyatiga oid boshqa savollarni berish huquqiga ega. Mazkur berilgan savol mazkur tartibning 3-ilovasi bilan tasdiqlangan ma'lumotda yoziladi.

32. Sinovni amalga oshirish uchun har bir nomzodga 10 ta savol beriladi. Nomzodning bergen javoblariga qarab Tanlov komissiyasi tomonidan 10 ball bo'lgan tizimda baholanadi.

Javoblarga qarab quyidagicha ball qo'yiladi:

- Namunali (to'liq javob, qoniqarli) - 10 ball;

- Yaxshi (o‘rtacha, javobning mazmun mohiyatini biladi) – 7-9 ball;
- Qoniqarsiz (past, javobning mazmunini qisman biladi) – 3-6 ball;
- Umuman bilmasligi (jumladan boshqa javob berilganda) – 0-2 ball.

Tanlov komissiyasi tomonidan savol-javoblar jarayonida nomzodga baho (ball) berilib, natijasi bo‘yicha 3-ilovaga muvofiq ma’lumot rasmiylashtiriladi.

33. Nomzodning savol-javoblari natijasi Tanlov komissiyasi tomonidan baholanib jamlanadi.

Shaffoflikni ta’minalash maqsadida, nomzodni baholash natijalari nomzodga tanishtiriladi. Nomzod baholash natijalari bilan tanishishdan bosh tortsa tegishli dalolatnoma tuziladi.

6-bob. Nomzod tomonidan shaxsga oid ma’lumotlarni baholash uchun taqdim etiladigan hujjatlar va tanlov o’tkazish jarayoni

34. Tanlov va sinov Tanlov komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

35. Tanlov jarayoniga nomzodlar bevosita yoki “ZOOM” dasturiy ta’minoti (platformasi) yoki boshqa axborot texnologiyalari (*Tanlov komissiyasi a’zosi hamda nomzod tomonidan bir vaqtida foydalanish imkoniyati mavjud axborot texnologiyalari qo’llaniladi*) vositasida masofadan tanlov jarayoniga qatnashishi mumkin.

36. Tanlov komissiyasi tomonidan vakant lavozimlarning ro‘yxati, belgilangan ish haqi miqdori, vazifalari, ish joyi va boshqa ma’lumotlarni nomzodlarga tushuntirib beriladi.

Shuningdek, nomzodlarni ishga qabul qilish jarayoni hamda mazkur tartib bo‘yicha nomzodlarga tushuntirish beriladi.

37. Tanlov komissiyasi har bir nomzod bilan sinovni o’tkazadi.

38. Sinovga va suhbat jarayoniga, ishga qabul qilinadigan boshqa nomzodlar qatnashishi mumkin. Biroq, suhbat o’tkazilayotgan nomzodning shaxsga oid ma’lumotlarini oshkor qilishi mumkin emas.

7-bob. Tanlov yakuni va nomzodlarni saralash.

39. Tanlov komissiyasi tomonidan barcha nomzodlarni baholanganligi to‘g‘risidagi 3-ilovaga muvofiq ma’lumotlarni jamlab imzolaydi.

40. Tanlov komissiyasi tanlov tugagandan keyin bir ish kuni davomida har bir vakant lavozim bo‘yicha nomzodlarning olgan baholari kamayib boruvchi tartibda ballar ketma ketligida 4-ilovaga muvofiq ma’lumotlarni shakllantiradi.

Savol-javoblar bo‘yicha eng kam ball olgan nomzodlarning huquqiy bilim darajasi o‘rtacha o‘zlashtirishdan kam deb hisoblanib, mazkur nomzodlarning

shaxsga oid ma'lumotlarni baholash natijalaridan qat'iy nazar ishga qabul qilinmaydi.

Tanlangan kasb, lavozim uchun eng yuqori ballni to'plagan nomzod mazkur vakant ish o'rni uchun ishga qabul qilish uchun tanlangan hisoblanadi.

41. Agar vakant ish o'rni uchun tanlov g'olibi sifatida nomzodlar bir xil ball to'plasa, savol-javoblar natijasida qaysi bir nomzod ko'p ball olgan bo'lsa shu nomzod g'olib deb topiladi.

42. Tanlov natijalari bo'yicha Tanlov komissiyasi tomonidan bayonnomma rasmiylashtiriladi. Bayonnomada har bir nomzodning baholash natijalari hamda mehnat shartnomasini tuzish tavsiya etilgan tanlov g'oliblari va tanlovdan o'tolmagan nomzodlarning ro'yxati ko'rsatiladi.

Bayonnomma sinov o'tkazilgandan keyin uch ish kuni ichida rasmiylashtirilib Tanlov komissiyasi tomonidan imzolanishi shart hamda ish beruvchi vakolatiga ega bo'lgan mansabdor shaxs tomonidan tasdiqlanadi.

43. Bayonnomma tasdiqlangandan keyin, bir ish kuni muddatda tanlov natijalari bo'yicha vakant ish o'rinaliga g'olib bo'lgan nomzodlar "NKMK" AJning rasmiy veb-saytiga hamda kombinat bo'linmalari binosining peshlavhasiga joylashtiriladi.

44. Kadrlar boshqarmasi (bo'linmalar kadrlar xizmatlari) tomonidan bayonnomada nazarda tutilgan tanlov g'olibini ishga qabul qilish va mehnat shartnomasini mehnat qonunchiligidagi belgilangan tartibda tayyorlanib, rahbariyatga imzolash uchun kiritiladi.

8-bob. Yakuniy qoidalar

45. Tanlov komissiyasi faoliyatiga hamda tanlov jarayoniga boshqa shaxslar aralashishiga yo'l qo'yilmaydi.

46. Tanlov komissiyasi faoliyatiga va nomzodlarni ishga qabul qilish bilan boshqacha tarzda aralashgan shaxslar o'z vakolat doirasidan chetga chiqish yoki xizmat lavozimini suiiste'mol qilish deb baholanadi.

47. Nomzodlar Tanlov komissiyasi xulosasidan norozi bo'lgan taqdirda, Tanlov komissiyasining bayonnomma rasmiylashtirilgan kundan boshlab bir oy muddatda tanlov natijalari bo'yicha Tanlov komissiyasi xulosasi ustidan yuqori turuvchi organiga yoki sudga shikoyat qilish huquqiga ega.

48. Tanlov jarayoni ishtirokchilariga nomzodlarning shaxsiy ma'lumotlarini oshkor qilmaslik mas'uliyati yuklanadi.

49. Ushbu tartib talablarini buzganlikda aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.